



ANALYSIS OF THE ASSORTMENT OF ANTIPROTOZOAL MEDICINES

Madatova N.A.¹

Xusainova R.A.²

Mamatmusayeva D.J.²

¹Alfraganus University, Tashkent, Republic of Uzbekistan,
e-mail: n.madatova@afu.uz

²Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent, Republic of
Uzbekistan, e-mail: xusainova_79@inbox.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18654740>

ARTICLE INFO

Received: 09th February 2026

Accepted: 15th February 2026

Online: 16th February 2026

KEYWORDS

Assortment Analysis,
Antiprotozoal Medicines, Drug
Audit Data, Pharmaceuticals,
Pharmaceutical Market,
Dosage Forms.

ABSTRACT

In the Republic of Uzbekistan, an analysis of the assortment of antiprotozoal drugs registered in the country was conducted based on the data from the State Registers of authorized medicinal products, medical devices, and medical technology: 2021 No. 25, 2022 No. 26, 2023 No. 27, 2024 No. 28, and 2025 No. 29, as well as information from DRUG AUDIT. The analysis of the registration of antiprotozoal drugs in the pharmaceutical market of the Republic of Uzbekistan indicates that the production of local, highly effective antiprotozoal drugs in various pharmaceutical forms is currently very relevant and promising.

PROTOZOYLARGA QARSHI DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI

N.A. Madatova¹

D.J. Mamatmusayeva²

R.A. Xusainova²

¹Alfraganus universiteti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi,
e-mail: n.madatova@afu.uz

²Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi
e-mail: xusainova_79@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18654740>

ARTICLE INFO

Received: 09th February 2026

Accepted: 15th February 2026

Online: 16th February 2026

KEYWORDS

Assortiment tahlil,
protozoylarga qarshi dori
vositalar, DRUG AUDIT
ma'lumotlari, dori vositalari,
farmatsevtika bozori, dori
shakllari.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrilari: 2021 yil №25, 2022 yil №26, 2023 yil №27, 2024 yil №28 va 2025 yil №29 son ma'lumotlari va DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan protozoylarga qarshi dori vositalarining assortiment tahlili o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida protozoylarga qarshi dori vositalarini ro'yxatga olish tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda mahalliy,



IF = 9.2

yuqori samarali protozoylarga qarshi dori vositalarini turli dori shakllarida ishlab chiqarish juda dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.

Kirish: Protozoilar (yunoncha protos — birinchi, zoon — hayvon) — bitta hujayradan iborat bo'lgan eng sodda eukariot tirik organizmlardir. Ular mikroskopik o'lchamga ega bo'lib, insonlarda bezgak, lyamblioz, toksoplazmoz, leyshmaniyoz, uyqu kasalligi kabi jiddiy kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ko'pchilik turlarida sista bosqichining borligi, hujayraning ichiga yashirinish qobiliyati, ozuqa moddalarini odam organizmidan olishi, tez ko'payishi va qon so'ruvchi hasharotlar yordamida to'gridan to'g'ri qonga o'ta olish qobiliyati ularning keng tarqalishiga imkon yaratadi.

Misol sifatida, O'zbekistonda lyamblioz bilan kasallanganlar soni taxminan 200 000 kishi atrofida baholangan bo'lib, ulardan asosiy qismi 14 yoshgacha bo'lgan bolalardir. Bolalar va o'smirlar orasida lyambliozning tarqalish darajasi (prevalentligi) 30,7% gacha yetishi kuzatilgan. Kasallikning keng tarqalganligi unga qarshi davolash choralari kuchaytirish va dori vositalari bilan ta'minlashni nazorat qilish zarurligini ko'rsatadi.

Protozoil kasalliklar odam organizmidan immunitetning zaiflashuviga, moddalar almashinuvini buzilishi, allergiyaga moyillik, ichki organlarning shikastlanishi, reproduktiv organlar kasalliklari va ayollarda

homiladorlikda xavflarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Bolalarda kasallikning uzoq davom etishi organizmda moddalar va minerallar almashinuviga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ularni jismoniy va aqliy rivojlanishini pasaytiradi.

O'zbekistonning janubiy hududlarida teri leyshmaniyosi kasalligi ko'p uchraydi. Kasallik terida va ichki organlarda yaralar paydo bolishi bilan kechadi. Davolanish uzoq davom etadi. Kasallikning ichki turida davolash choralari olib borilmasa o'limga olib keladi.

Protozoilar qo'zgatadigan kasalliklar bilan kurashish uchun zamonaviy davo usullari va dori darmonlar zarurdir. Bu borada ularni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berish va ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan protozoylarga qarshi dori vositalarining 2021-2025 yillar uchun assortiment tahlili o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasida protozoylarga qarshi dori vositalar bozorini DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida o'rganildi [3,4].

Tadqiqot usullari: Tahlil jarayonida ob'ekt sifatida O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 – son, 2022 yil 26 – son, 2023 yil 27- son, 2024 yil 28-son va 2025 yil 29-sonli "O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan



dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri"dan va DRUG AUDIT ma'lumotlaridan foydalanildi[1.2].

Natijalar va muhokamalar: 2023 yil 31 avgustda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Asosiy dori vositalari ro'yhati"da protozoylarga qarshi dori vositalarga faqatgina metronidazole dori vositasining to'rt xil dori shaklidagisi kiritilgan.

Protozoylarga qarshi dori vositalarning assortiment tahlili "O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri" asosida olib borildi. 2025 yildagi №29-sonli O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestrini tahlil qilinganda, Davlat Reestridan umumiy 53 nomdagi protozoylarga qarshi dori vositalar ro'yhatdan o'tkazilgan. Ulardan 23

nomda (43,4%) dori vositalari mahalliy farmatsevtik korxonalari ulushiga, 9 nomdagisi (17%) dori vositalari MDH mamlakatlari ishlab chiqaruvchilari ulushiga va 21 nomdagisi (39,6%) dori vositalari ishlab chiqaruvchi xorijiy davlatlarning ulushiga to'g'ri keladi[8].

Oxirgi 5 yildagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash natijalari 1 - jadvalda keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2021-2025 yillarda xorijdan keltirilayotgan protozoylarga qarshi dori vositalar ulushi kamaygan bo'lishiga qaramay, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ro'yhatdan o'tkazilgan protozoylarga qarshi dori vositalar ulushi ortib borgan.

1-jadval

2021-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestridan o'tkazilgan protozoylarga qarshi dori vositalarining ulushi

Yillar	O'zbekiston		MDH		Xorijiy davlatlar		Umumiy
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni
2021	33	29,5	12	10,7	67	59,8	112
2022	34	31,2	13	12	62	56,8	109
2023	38	35,8	13	12,3	55	51,9	106
2024	32	38,6	11	13,2	40	48,2	83
2025	23	43,4	9	17	21	39,6	53

2021 yildagi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston hududida umumiy 112 nomda protozoylarga qarshi dori vositalar ro'yhatdan o'tkazilgan. Ushbu

dori vositalardan 33 nomdagisi (29,5%) mahalliy ishlab chiqaruvchilar, 67 nomdagisi (59,8 %) xorijiy ishlab chiqaruvchilari va 12 nomdagisini



(10,7%) MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilari ulushiga to'g'ri kelgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki 2021 yilda protozoylarga qarshi dori vositalarining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan soni 2025 yildagiga qaraganda yuqori bo'lishiga qaramay, ulush jixatdan kattagina qismi xorijiy davlatlar xissasiga to'g'ri kelmoqda[3,9].

Tahlilimizni keyingi qismida protozoylarga qarshi dori vositalarining 2025 yilda dori shakli bo'yicha tahlil qildik va natijalarni quyidagi 2-jadvalda keltirdik. Ushbu tahlil asosida olingan natijalardan mahalliy farmatsevtik korxonalar tomonidan kelajakda qanday dori shaklidagi protozoylarga qarshi dori vositalarini ishlab chiqarilishi kerakligi haqida ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

2- jadval

2025 yillarda ro'yxatdan o'tgan protozoylarga qarshi dori vositalarining dori shakllari bo'yicha tahlil natijalari

<i>Dori shakli</i>	<i>Ro'yxatdan o'tgan dori vositalar soni</i>					
	Xorijiy	%	MDH	%	O'zbekiston	%
In'ektsiya uchun eritma	7	33,3	2	22,2	17	74
Tabletkalar	9	42,8	3	33,4	4	17,4
Shamchalar	1	4,8	2	22,2	2	8,7
Kremlar	1	4,8	-	-	-	-
Gellar	2	9,5	-	-	-	-
Suspenziya uchun kukun	1	4,8	-	-	-	-
Kapsulalar	-	-	2	22,2	-	-
Umumiy soni	21	100	9	100	23	100

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda 2025 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan protozoylarga qarshi dori vositalarining aksariyatini in'ektsiya uchun eritmalar tashkil qilgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilari tomonidan ishlab chiqarilgan va ro'yhatdan o'tgan protozoylarga qarshi dori vositalarining


aksariyatini in'ektsiya uchun eritmalar, tabletkalar va shamchalar tashkil qilmoqda. Xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan va ro'yhatdan o'tkazilgan protozoylarga qarshi dori vositalarining dori shakllari juda xilma xil bo'lib, ular orasida in'ektsiya uchun eritma, suspenziya uchun kukunlar,



kremlar va gellar ham mavjud. Ushbu natijalardan ko'rinib turibdiki, maxalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar tomonidan yumshoq dori turidagi protozoylarga qarshi dori vositalarni ishlab chiqarish juda muhim.

Tadqiqotning keyingi qismida protozoylarga qarshi dori vositalarni DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida tahlilini o'tkazdik. DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida asosan protozoylarga qarshi dori

vositalarni tegishli yillar davomida O'zbekiston bozoriga olib kirilgan va ishlab chiqarilgan hajmini va ushbu dori vositalarining pul ko'rinishidagi miqdori to'grisidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Tahlil natijalari 1 - diagrammada keltirilgan. Ushbu diagrammada protozoylarga qarshi dori vositalarni O'zbekiston farmatsevtik bozorida qadoq hisobida va valuta hisobidagi nisbati keltirilgan.



1-diagramma. DRAG AUDIT ma'lumotlari asosida 2020-2024 yillarda protozoylarga qarshi dori vositalarni O'zbekiston bozorida hajmi

Diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, 2021-2022 yillarda protozoylarga qarshi dori vositalarning bozordagi ulushi bir oz kamaygan, ham qadoq va ham valuta hisobida. 2024 yilda esa protozoylarga qarshi dori vositalarning bozordagi ulushi esa 2020 yildagiga nisbatan ham ortgan.

Xulosa. Natijalardan ko'rinib turibdiki xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan protozoylarga qarshi dori vositalarning mahalliy bozorda dori shakli, turi jihatidan etakchilikni egallayotgan bo'lsada, yil sayin mahalliy ishlab chiqaruvchi farmatsevtik korxonalar tomonidan ham ishlab chiqarilayotgan protozoylarga qarshi dori vositalarning ulushi yil sayin ortib bormoqda. Xozirda bozorda mavjud bo'lgan protozoylarga qarshi dori vositalarning kattagina



qismini xorijiy farmatsevtik korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan va ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari tashkil qilmoqda. Bundan tashqari mahalliy bozorda mavjud bo'lgan va chetdan olib kelinayotgan protozoylarga qarshi dori vositalarning yumshoq dori shakllarida (krem va Gellar ko'rinishida)

ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, mahalliy farmasevtik korxonalar tomonidan protozoylarga qarshi dori vositalarni yangi farmakologik guruhlarini va yangi dori shakllarida ishlab chiqarishga joriy etish juda dolzarbdir.

References:

1. Madatova N. A., Jalilov F. S. ADAPTOGEN DORI VOSITALARNING ASSORTIMENT TAHLILI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2025. – T. 4. – №. 6. – C. 661-666.
2. Mustafaeu U. G. et al. ANALYSIS OF OBSTETRICS AND GYNECOLOGY MEDICINES BY PRODUCING COUNTRIES //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2025. – T. 4. – №. 6. – C. 701-708.
3. Madatova N. A. UROLOGIK DORI VOSITALARNING MARKETING TAHLILI //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2025. – T. 4. – №. 15. – C. 11-12.
4. Madatova N.A., Umarova G.S., Xusainova R.A. SURUNKALI VENOZ ETISHMOVCHILIGINI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARINING MARKETING TAHLILI // Eurasian journal of medical and natural sciences. – 2025. – T. 5. – №. 9. – C. 74-80.
5. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri. Yigirma beshinchi nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan - Toshkent. -2021. -1068 b.
6. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri. - №26. - 2022. 1180 b.
7. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri. - №27. - 2023. 1053 b.
8. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri. - №28. - 2024.
9. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri. - №29. - 2025.